XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 11 - yanvar VI-38-2-4-0-K/22 Qashqadaryo viloyati hokimligi

Hududlarda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov narxlari (tariflar)ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4845-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Qashqadaryo viloyati “Qashqadaryo eko trans” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2021-yil 30-noyabrdagi 322-sonli, viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 25-noyabrdagi VQ83848387-sonli xatlari va O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qashqadaryo viloyati “Qashqadaryo eko trans” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2021-yil 30-noyabrdagi 322-sonli, viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 25-noyabrdagi VQ83848387-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha aholiga 1 (bir) kishi uchun bir oyda 4550 (to‘rt ming besh yuz ellik) so‘m hamda yuridik shaxslardan 1 kub/metr chiqindi uchun (QQSsiz) 62000 (oltmish ikki ming) so‘m etib ko‘rsatilgan narx (tarif)lar ma’qullansin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Norqabilov, viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari N.Erkayev va viloyat hokimining o‘rinbosari A.Eshonqulovlar zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya Raisi **Ravshanov O. P.**

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 11 январдаги
VI-38-2-4-0-K/22-сон қарорига
1-илова

Коррупциявий омилларни аниқлаш бўйича

ЧЕКЛИСТ

Йўналишлар	Коррупциявий омиллар	Жавоблар				Коррупциявий омил мавжуд норма ва унинг асоси
Нормаларнинг барқарорлиги ва ҳуқуқий мувофиқлиги билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Сўзларнинг нотўғри қўлланилиши			йўқ		
	Ноаниқ ва асоссиз ҳаволалар келтирилганлиги			йўқ		
	Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўртасида зиддиятларнинг мавжудлиги			йўқ		
Ваколатлар, ҳуқуқ ва мажбуриятлар билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Дискрецион ваколатларнинг кенглиги			йўқ		
	Аниқ белгиланмаган ваколатлар			йўқ		
	Давлат органларининг такрорловчи ваколатлари ва вазифаларнинг мавжудлиги			йўқ		
	Давлат органи томонидан ўзининг ваколатига кирмайдиган масалалар бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиниши			йўқ		
	Вазифа ёки топшириқни бажариш учун ижрочида етарли ваколатлар ва ресурсларнинг мавжуд эмаслиги			йўқ		
	Кечиктириб тартибга солиш			йўқ		
	Манфаатлар тўқнашуви			йўқ		
	Афзалликларнинг асоссиз белгиланиши			йўқ		
	Норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг кучга киришини асоссиз равишда кечиктириш			йўқ		
	Ҳуқуқ ва мажбуриятлар ўртасидаги номутаносибликлар			йўқ		

Маъмурий тартиб-таомиллар билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Маъмурий тартиб-таомилларнинг мавжуд эмаслиги ёки тўлиқ эмаслиги			йўқ		
	Белгиланган қоидалардан чиқувчи истисноларни асоссиз ўрнатилиши			йўқ		
	Ортиқча ва асоссиз талабларнинг ўрнатилганлиги			йўқ		
	Вақт чегараларининг аниқ белгиланмаганлиги			йўқ		
	Тўлов миқдорлари аниқ белгиланмаганлиги			йўқ		
	Санкцияларнинг номутаносиблиги			йўқ		
	Чора-тадбирларни амалга оширишнинг молиялаштириш манбалари ноаниқлиги			йўқ		
Назорат билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Шикоят қилиш тартибининг мавжуд эмаслиги			йўқ		
	Шаффофлик ва жамоатчилик назоратини таъминлашдаги бўшлиқлар			йўқ		
	Давлат органларининг фаолияти устидан назорат қилишнинг шакллари ва турлари белгиланмаганлиги			йўқ		